

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, G.Mirzaaxmedova

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi xorij olimlarining tadqiqotlarida. 17

B.Q.Qurbonova

Ta'limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishga doir qarashlar 22

S.M.Zokirova, M.R.Maxkamov

O'zbekistondagi ta'limni tojik tilida olib boradigan maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga davlat tilini o'qitish jarayonida monolog va dialogning o'rni 27

G.I.Yuldasheva, O.M.Mirzaxamdamova

Sotsiologik tadqiqotlarda dasturiy ta'minot va Ibm Spss dasturidan foydalanish omillari..... 33

Sh.A.Ro'zaliyev

Informatika turkum fanlarini o'qitishda geymifikatsiyadan foydalanish bosqichlarini axborotlarni qayta ishlash va uzatish asosida tashkil etishning metodik jihatlari 40

A.R.Abdullayeva

Nikoh yoshi - oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy psixologik omili 43

N.U.Alijonov

Ta'lim sohasidagi rahbarlarning psixologik salomatligini tadqiq etish..... 49

M.Y.Atadjanov

Mahalla – milliy identifiklikka tahdidlardan himoya omili 54

N.N.Ahmadjonov

Ijtimoiy psixologiyada shaxsiy qadriyatlarini aniqlash tizimi..... 60

M.A.Djalalova

Maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik salomatligining empirik tahlili 65

N.A.Ergasheva

Psixologik salomatlik hamda uning mezonlari..... 69

Sh.K.Mamajonova

O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini empirik o'rganish 73

D.M.Mo'minov

Ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ omillarni inson ongiga tasirini o'rganish 81

D.M.Nuralieva

O'zbek oilalarida oila qurish motivlarini o'rganishda empirik tadqiq etilganligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 87

R.S.Nuriddinov

Bo'lajak pedagoglar psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillar..... 92

M.J.Rajabov

Oilaviy munosabatlarda transakt rollar va ularning tahlili 96

F.S.Soliyev

Zamonaviy ta'lim muhitida psixologik xavfsizlik va ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksini oshirishning psixologik mexanizmlari 100

Sh.A.Usmonov

Oilada bolaning o'zini anglashida ota-ona shaxsining roli 106

M.B.Yuldasheva

Yolg'izlik hissining ifodalanish xususiyatlari 111

G.S.Yunusova

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'nalganligini psixologik tahlili 116

M.S.Zakirova

Bolada shaxs fazilatlarini shakllanishida "Men" konsepsiyasining o'rni 121

H.A.G'anieva

Maktab o'quvchilarining kasb tanlashga bo'lgan motivlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari... 128

Л.Ю.Абдукадилова, Д.В.Мионов

Интернет-зависимость школьников, как фактор снижения показателей в исследованиях PISA 134



UO'K: 351.86:32 (575.1)

MAHALLA – MILLIY IDENTIKLILIKKA TAHIDDLARDAN HIMOYA OMILI**МАХАЛЛА – ФАКТОР ЗАЩИТЫ ОТ УГРОЗ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ****MAHALLA – A FACTOR OF PROTECTION AGAINST THREATS TO NATIONAL IDENTITY****Atadjanov Mamirjon Yusupovich** 

Farg'ona davlat universiteti, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab milliy o'ziga xoslik, milliy o'zini anglash, milliy madaniyat va qadriyatlarga nisbatan tahdidlar kuchaya boshladi, ayni paytda butun dunyoda milliy paradigmaning tez o'sishi kuzatilmoqda. Azaldan insoniyatning eng noyob qadriyatlari hisoblangan demokratiya, umuminsoniy qadriyatlar tushunchalari tahdidlar shakliga transformatsiya bo'lib, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilishning kuchli qurollariga aylanib bormoqda. Maqolada milliy identichlilikka tahdidlar kuchaygan shunday sharoitda mahallaning milliy identichlilik qadriyatlarini saqlash, shakllantirish va avlodlararo uzatish vositasi hamda himoya omili sifatidagi ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan.

Аннотация

Со второй половины XX века стали возрастать угрозы национальной идентичности, национальному самосознанию, национальной культуре и ценностям, при этом во всем мире наблюдается быстрый рост национальной парадигмы. Концепции демократии и общечеловеческих ценностей, с самого начала считавшиеся наиболее уникальными ценностями человечества, трансформируются в форму угроз и становятся мощным оружием манипулирования общественным сознанием. В статье предпринята попытка раскрыть значение махалли как средства сохранения, формирования и передачи из поколения в поколение ценностей национальной идентичности и как защитного фактора от угроз национальной идентичности.

Abstract

Since the second half of the 20th century, threats to national identity, national self-awareness, national culture and values began to increase, while the rapid growth of the national paradigm has been observed throughout the world. The concepts of democracy and universal values, which from the very beginning were considered the most unique values of humanity, are transformed into the form of threats and become powerful weapons for manipulating public consciousness. The article makes an attempt to reveal the significance of mahalla as a means of preserving, forming and transmitting from generation to generation the values of national identity and as a protective factor against threats to national identity.

Kalit so'zlar: Демократия, қадриятлар, глобаллашув, таҳдидлар, трансформация, миллий идентичлилиқ, таҳдидлардан ҳимоя, миллий маданият, боқимандалик, миллий тарбия.

Ключевые слова: Демократия, ценности, глобализация, угрозы, трансформация, национальная идентичность, защита от угроз, национальная культура, воспитание, национальное образование.

Key words: Democracy, values, globalization, threats, transformation, national identity, protection from threats, national culture, upbringing, national education.

“Tarixdan ma’lum, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg’oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o’z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g’arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabr
kuni bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va
ma’rifat kengashining kengaytirilgan
yig‘ilishidagi nutqidan.**

KIRISH

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab zamonaviy texnologiyalarning hamma sohalarida inqilobiy o'sishlar bilan birga insonning biologik va ijtimoiy mavjudligiga tahdidlar kuchaydi, insoniyat "mega xatarlar va megatahdidlar" davriga qadam quydi. Tahdidlar insonlar o'limi, ularning sog'ligiga yoki tabiatga zarar yetkazilishi, katta moddiy yo'qotishlar va insonlar hayot tarzining buzilishiga olib keladigan avariylar, xavfli tabiiy ofatlar, falokatlar tufayli ma'lum maydondagi vaziyatning salbiy tomonga keskin o'zgarishi ko'rinishidagi favqulodda vaziyatlar, inson hayotining nisbiy belgilangan hayot tarzi davomida rivojlanadigan, turli faoliyatlarni bajarishda oddiy algoritmgacha aylangan va shaxs hayotining turli sohalariga negativ ta'sir ko'rsatadigan ekstremal vaziyatlar, shaxsning psixologik farovonligiga, uning o'zini o'zi qadrlashi, imiji, odamlar bilan munosabatlari va boshqalarga xavf tug'diradigan psixologik tahdidlar va ayrim davlatlar tomonidan boshqa davlatlar jamiyati, xalqi, turli ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy ierarxiyaning turli pog'onasida turgan qatlamlarga o'z g'oyalari, qarashlari, qadriyatlarini tizimini singdirish uchun amalga oshiradigan psixologik xurujlar ko'rinishida sodir bo'la boshladi. Tabiiy texnogen tahdidlar odamlarning o'limi, katta vayronalıklarga, ekstremal vaziyatlar jaroxatlar va psixosomatik siljishlarga, psixologik tahdidlar nevrozlarga, psixologik xurujlar esa turli jamiyatlarning ijtimoiy-ma'naviy muhitining buzilishi, shaxslararo munosabatlarda ziddiyatlarning kuchayishi, ma'naviy-axloqiy inqirozlar, mafkuraviy-g'oyaviy maslaksizlik, ekzistentsial vakuumga sabab bo'lmoqda.

Shu o'rinda "tahdidlar transformatsiyasi" atamasiga alohida to'xtalish joiz. Ko'pchilik "transformatsiya" va "transformer" atamalarini teng kuchli, deb hisoblaydi. Transformer atamasi shaklning o'zgartirilishi ma'nosini anglatadi, transformatsiya fenomenologiyaga taalluqli bo'lib, shaklni saqlagan holda mohiyatning o'zgartirilishini, mohiyatni kechinmalar darajasida anglanilishini bildiradi. Matnda demokratiya, umuminsoniy qadriyatlar, gender tengligi, globallashuv, zo'ravonlikka qarshi kurash kabi qadriyatlar transformatsiyasi haqida gapirganda ularning shakli saqlangan holda mohiyatiga idrok pattern-modellarini kerakli tomonga o'zgartirishga qodir bo'lgan salbiy mazmunni joylash, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish amaliyoti, natijada ularning qadriyatlardan tahdidlarga o'zgarishi tahlil qilingan. Har qanday etnik o'ziga xoslik va milliy identifiklikni vayron qilishga yo'naltirilgan qadriyatlar transformatsiyasi fenomenologiya qonunlariga ko'ra ta'sir obyektlari tomonidan kechinmalar darajasida anglanilishini ko'zda tutadi va odatda anglashning bunday shakli ongli qarshiliksiz amalga oshadi.

Asosiy muammo aslida sanab o'tilgan holatlarda emas, chunki tahdidlarning bunday shakllari filogeneza har doim mavjud bo'lgan va odam ulardan himoyalaniş uchun koping strategiyalar, ongsiz himoya reaksiyalari va g'oyaviy-mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ko'rinishidagi himoya mexanizmlariga ega va ularni muvaffaqiyatli qo'llash tajribasini o'zlashtirgan. Lekin hozirda barcha tomonidan tanqidiy tahlilsiz qabul qilib kelingan demokratiya, umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy (gender) tenglik, o'zaro aloqalarni kuchaytirish (globallashuv) va zo'ravonlikning har qanday shakliga qarshi kurash kabi qadriyatlar transformatsiyaga uchradi, shakli saqlangan holda mazmun va mohiyati o'zgardi, ma'naviyatsizlik, axloqsizlik, ijtimoiy norozilik, loqaydlik, umidsizlik, biologik jinsni inkor qilish, ta'limga urg'u berib tarbiyaning majburiylik hamda madaniyat va jamiyat normalariga bo'ysunish zarurati tamoyillarini demokratiyaga zid va zo'ravonlik, deb baholashni targ'ib qiluvchi tahdidlar shakliga o'tdi.

Ta'kidlash joiz, oshkora tahdidlar jamiyat va shaxs uchun u darajada xatarli emas, chunki har qanday jamiyat va alohida shaxsda ulardan himoyalaniş tajribasi va maxsus mexanizmlari mavjud. Lekin transformatsiyalashgan, shakli ijobiy, mazmun mohiyati salbiy tahdidlar insoniyat uchun o'ta xatarli, chunki ular shaklan umuminsoniy qadriyat ko'rinishida bo'lganligi tufayli ijtimoiy ong tomonidan tanqidiy tahlilsiz qabul qilinadi, manipulyatsiya jarayoni amalga oshadi va shuning uchun ijtimoiy ong ularga qarshilik ko'rsatmaydi, demak himoyalaniş tajribasi va mexanizmlariga ham ega bo'lmaydi. Shuning uchun e'tiboringizga xavola qilinayotgan ilmiy xabarning zamonaviy tahdidlar transformatsiyasi va ulardan himoya mexanizmlari mavzusi tanlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zga millatlarni ma'naviy qaramlikka solish tajribasi insoniyat tarixida azaldan ma'lum. Chingiz Aytmatov asarlarida tilga olingan manqurt atamasi, bosib olingan yerlarda ellinlar, natsizm madaniyatlarini turli usul va vositalar bilan singdirishga intilishlar, mustamlakachilik siyosati bunga misol bo'la oladi. Lekin aynan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu jarayon zamonaviy shakllarga transformatsiya bo'lib, tobora xatarli tus ola boshladi, siyosiy leksikonda "o'yin siyosati",

“o‘yinchi davlatlar” iboralari paydo bo‘ldi. O‘yin siyosati siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-ma‘naviy jarayonlarning istisnosiz barcha sohalarini qamrab oldi. Universal qadriyatlar niqobi ostida milliy o‘ziga xoslik, milliy ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar inkor qilinib, demokratiya niqobi ostida ochiqdan-ochiq demokratiyaga hech qanday aloqasi bo‘lmagan qadriyatlarni targ‘ib qilish kuchaydi.

Demokratiya, umuminsoniy qadriyatlarning o‘zak mazmuni bo‘lgan tenglik, ozodlik, do‘stlik, bag‘rikenglik tushunchalari insoniyatning azal-azaldan ardoqlab kelayotgan qadriyatlari hisoblanadi. Lekin aynan hozirgi davrga kelib bu qadriyatlarning mazmun mohiyatini o‘yinchi davlatlar o‘z xohishicha o‘zgartirib, uning mohiyatiga o‘zlari istagan mazmunni joylashga urinishmoqda, o‘zlari universal qadriyat, deb hisoblagan shaklda uni boshqa millatlar milliy psixologik qiyofasi tarkibiga joylashga harakat qilishmoqda, uni inkor qilgan millat, xalq va davlatlarga “antidemokratik” yorlig‘ini yopishtirishmoqda. Ana shunday g‘araz maqsadlarning jamiyat ijtimoiy ma‘naviy muhiti barqarorligi uchun naqadar xatarli ekanligi haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqlarida ogohlantirishdi: “Ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan chetdan, ba‘zan hatto mamlakatning o‘zida ham Konstitutsiya va qonunlarga zid pozitsiyalar ilgari surilayapti, jumladan, diniy e‘tiqod niqobi ostida yoshlarni ma‘rifatga emas, jaholatga undash holatlari paydo bo‘lmoqda. Bunday vaziyatda jamiyatda jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashishni kuchaytirish, ehtiyotkorlik va ogohlilikni oshirish lozim”.

Har bir millatning asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlari, buyuk tarixi, an‘analari asosida demokratiya haqida shakllangan o‘z tasavvurlari mavjud. Qachonki demokratik jarayonlar ana shu milliy qadriyat, tarix va an‘analarga mutanosib bo‘lgandagina u xalq uchun chinakam farovonlik, erkinlik va huquqiy tenglik kafolatiga aylanadi, ayrim millatning demokratik qadriyatlarini zo‘rlab sindirishga urinishlar esa xalq uchun kulfat, xunrezlik va tartibsizlik olib keladi.

Mutaxassislar shu narsani e‘tirof etishadiki, ibtidoiy jamoa odami yovvoyi odam edi, keyinchalik yovvoyi odam aqlli odamga aylandi, zamonaviy odam esa axborot odami bo‘lib qoldi. Zamonaviy odam bilim va tajribadan ko‘ra ko‘proq axborotga, turli manbaalardan tarqatilayotgan g‘oyalarga tobe bo‘lib qoldi. S. Kara-Murza ta‘kidlaganidek “Bugun ommaviy axborot vositalari ma‘lumotning emas, mafkuraning quroliga aylandi. U tarqatayotgan ma‘lumotlar ichida eng muhimi bizning ongimizga kontrabanda yo‘li bilan joylashtirilayotgan g‘oyalar bo‘lib hisoblanadi”. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining barchasi, xatto badiiy televideniye ham axborot xurujining vositasi bo‘lib qolmoqda.

Ayni paytda ommaviy axborot vositalari orqali reklama maqsadida, ba‘zan reklama niqobi ostida to‘g‘ridan-to‘g‘ri targ‘ibot-tashviqot maqsadida, beto‘xtov ravishda, aniq maqsad ko‘zlab behisob ma‘lumot va axborot ommaviy ong tarkibiga joylanmoqda. Ba‘zan zararsizdek tuyulgan bu axborot-ma‘lumotlar odamlarning dunyoqarashi, turmush tarzi, stereotiplari, ustanovkalari, qadriyatlari yo‘nalishi, o‘zaro munosabat usullari, oilaviy va jinsiy munosabatlarini, kiyinish, ovqatlanish madaniyatini o‘zgartirmoqda. Shu yo‘l bilan aniq geosiyosiy va geoiqtisodiy maqsadni ko‘zlagan kuchlar ba‘zan ommaviy madaniyat, huquqiy-demokratik g‘oyalar niqobi ostida o‘z maqsadlariga xizmat qiladigan diniy, siyosiy ekstremistik, terroristik g‘oyalarni ijtimoiy ong tarkibiga joylashmoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA


Mahalla milliy identiklilikni saqlash, shakllantirish, muhofaza qilish va avlodlararo uzatish vositasi sifatida. 2023-yil 21-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-209-son farmoni hamda 2023-yil 21-dekabrda “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-402-son qarorlari e‘lon qilindi.

Uyushmaning asosiy vazifalaridan sifatida har bir fuqaro o‘zi va oilasining kelajagi, moliyaviy ahvoli va farovonligini ta‘minlashda mas‘uliyatni sezishi, boqimandalikka o‘rganmaslik hissini yanada kuchaytirish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish; fuqarolarni o‘z uyi va ko‘chasini ozoda saqlashga, milliy qadriyat va urf-odatlarini hurmat qilishga chaqirish, ma‘naviy va ma‘rifiy ishlarda mahallaning o‘rnini kuchaytirish, aholi o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash choralarini ko‘rish belgilandi.

O‘zbeklar psixologik qiyofasi va milliy xarakteridagi eng asosiy xususiyatlardan bo‘lgan munosabat usullari, xatti-harakat, xulq shakllarini tanlashda qo‘ni-qo‘shnilar, qarindosh-urug‘lar,

PEDAGOGIKA

mahalla ahliga moslashtirish ustanovkalarining kuchliligi bilan izohlanadi. Mahallalardan shaxsga xos bo'lgan bunday qadriyat ustanovkalarni har bir fuqaro va ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlod ijtimoiy ongi tarkibiga joylash uchun hamma imkoniyatlar mavjud.



Mahalla bizning milliy qadriyatimiz, tarixiy taraqqiyot jarayonida erishgan maqsadga muvofiq turmush tarzimiz. Etnografiya fanining dalillariga ko'ra ko'chib o'tish natijasida Farg'ona vodiysiga kelib o'rnatilib, o'troqlashgan barcha millatlar imorat me'morchiligi, uy-ro'zg'or ashyolari va boshqa xususiyatlar qatorida o'zbeklardan mahalla-jamoaviy munosabatlar tizimini ham o'zlashtirishgan. Mahalla, shuning uchun ham milliy o'zligimizning o'zak xususiyatlaridan biri sifatida asrlar sinovlariga bardosh berib yashab kelmoqda, tobora rivojlanib, zamonga moslashib bormoqda. Akademik Axmadali Asqarovning ta'kidlashicha "O'zbeklarning etnik tarixi davomida, unga keyinroq qo'shilgan etnik komponentlar uzil-kesil shakllangan o'zbek etnosi tarkibini deyarli o'zgartirib yubora olmadi, balki uning bag'rida etnik guruhlar sifatida uzoq vaqt yashab, ma'lum bir tarixiy davrdan so'ng o'zbek xalqi tarkibiga singib ketdi".

Ijtimoiy yordamni belgilash va taqsimlashning mahalla usuli hozirda chet ellik ekspertlar tomonidan ham eng adolatli va tezkor usul sifatida baholanmoqda. Kimning kim ekanligini, nochor-u badavlat ekanligini va nihoyat kim haqiqatan ham moddiy yordamga muhtoj-u, kim yordamsiz ham o'zini eplay olishini mahalla biladi. Yaxshini qadrlaydigan ham, yomonning dodini beradigan ham va eng muhimi har ikkalasini yaxshi taniydigan ham mahallaning o'zi.

Mahallada ijtimoiy ma'naviy muhitning barcha tarkibiy qismlari –ijtimoiy ong, ma'naviy qadriyatlar, madaniyat va shaxs, jamiyat, davlatning milliy o'ziga xoslik va xalqning ma'naviy jipsligini saqlash asosida rivojlanishi hamda takomillashishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan omillar birlashgan. Jamiyatning poydevori sifatida mahalla ijtimoiy ma'naviy muhit barqarorligini saqlashning, ya'ni ijtimoiy ongni ayni davr talablariga mos darajada rivojlantirish, ma'naviy qadriyatlar hamda madaniyatni saqlash va mustahkamlash, shaxs, jamiyat, davlat manfaatlarini uyg'unlashtirish, milliy o'ziga xoslikni, xalqning ma'naviy jipsligini saqlashning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi tahdidlar tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda millat, jamiyat va davlat taqdiri uchun o'ta dolzarb masalaga aylanib qolmoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, "Biz bugungi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob berayaptimi? Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o'ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda „o'zbek“, „o'zbekistonlik“, „O'zbekiston“ degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi".

Tadqiqotchilar doimiy ta'kidlashadiki har qanday omil ikki yoqlama ta'sir kuchiga ega. Mahalla millatga xos bo'lgan barcha ijobiy xususiyat va qadriyatlarni o'zida mujassamlashtiradi, saqlaydi va avloddan-avlodga uzatadi. Lekin ayni paytda shuni ham unutmaslik kerakki, millat doimiy ravishda qutulishga harakat qiladigan salbiy xususiyatlar ham mahalla omili yordamida saqlanadi va uzatiladi. «Odamlar nima deydi», «ko'pchilik nima bo'lsa, men ham shu», «odamlar gap-so'z qilishadi», degan ijtimoiy o'z-o'zini baholash normalari ba'zan o'zimiz xohlamagan holda, inersiya tufayli ayrim hozirgi kun nuqtayi-nazaridan salbiy xatti-harakatlarni amalga oshirishga ham majbur qiladi. Bunday holatlardan chiqish uchun faqat shaxsning qat'iy o'z-o'zini baholash tizimigina yetarli bo'lmaydi, ijtimoiy to'siqni yengib o'tish uchun uni namoyon qiladigan mahalla ijtimoiy muhitini o'zgartirish, mahallaning ijtimoiy baholash tizimini yangi talablar darajasiga moslashtirish eng katta samara beradi.

Biz oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarga yetishda, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot qonunlariga ko'ra amalga oshayotgan o'zgarishlarga moslashishimizda milliy mustaqillik psixologiyamizni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Aynan mana shu jarayonda mahallaning o'ziga xos o'rni bor. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek "Mahalla xalq bilan davlat o'rtasidagi ko'pri bo'lishi kerak. Odamlarning quvonch-u tashvishidan doimo xabardor bo'lish mahallaning asosiy vazifasidir". Mulohazalilik, sabr-toqatlilik, oilaparvarlik, mehmondo'stlik, bolajonlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlar milliy psixologik qiyofamizning asosiy belgilari hisoblanadi. Ana shu xususiyatlarning barchasi o'zbek jamiyatining negizini tashkil qiluvchi mahallalarda namoyon bo'ladi.

Rivojlangan jamiyatlarda shakllangan boqimandalik illati global axborot muhiti yordamida dunyoning barcha nuqtalariga, shu jumladan bizning jamiyatimizga ham kirib kelmoqda. Boqimandalik zamonaviy kishilik jamiyatining illatiga, ma'naviy va axloqiy tubanlikning ildiziga aylanib qoldi. Ana shu illatni oldini olish va bartaraf qilishda, Farmonda belgilanganidek "har bir fuqaro o'zi va oilasining kelajagi, moliyaviy ahvoli va farovonligini ta'minlashda mas'uliyatni sezishi, boqimandalikka o'rganmaslik hissini yanada kuchaytirish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish" da mahallaning imkoniyatlari beqiyos.

Ana shu xususiyatlardan kelib chiqib milliy psixologik qiyofaning shakllanishi va namoyon bo'lishida ijtimoiy va ishlab chiqarish munosabatlarining rolini inkor etmagan holda, biz o'zbek jamiyatida mahalla omili ustuvorligini ta'kidlashni lozim topdik. Buyuk madaniyatimiz tomirlari, qadimiy merosimiz ildizlari, ma'naviyatimiz asoslari, tafakkur tarzimiz, boy an'analarimiz, taomillarimiz, umuminsoniy va milliy qadriyatlarimiz, diniy ma'naviyatimiz bevosita bizning mahalliy turmush tarzimiz bilan bog'liqdir. Fikrimizcha mahallaning asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilishi o'z ijtimoiy va ishlab chiqarish sohasi bilan birga milliy identiklilik kompleksini to'ldiradi, uning bir butunligi, yaxlitligini ta'minlaydi.

Yuqorida tilga olingan fikrni yana bir bor ta'kidlaymiz. Zamonaviy globallashtirish dunyoda transformatsiyalashgan soxta demokratik, umuminsoniy qadriyatlar va globallashtirishning tahdidlariga milliy o'ziga xosligini, milliy mafkurasini, milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini, madaniy an'analarini, milliy ta'lim va tarbiya usullarini qarshi qo'ya olgan jamiyat, davlatgina o'ziga xosligi, mustaqilligini saqlab qola oladi.

XULOSA

Yuqorida taqdim qilingan nazariy tahlilimizda demokratiya, umuminsoniy qadriyatlar, gender tengligi, globallashuv, zo'ravonlikka qarshi kurash tushunchalarining transformatsiyasi, mazmun va mohiyatiga bir yoqlama standartlarning joylashtirilishi oqibatida ularning ijtimoiy ongning manipulyatsiya qilish vositasiga, milliy identiklikka tahdidlarga aylanib borayotganligi haqida fikr yuritdik.

Zamonaviy transformatsiyalashgan tahdidlar sifatida yondashuv demokratiya, umuminsoniy qadriyatlar, gender tengligi, globallashuv, zo'ravonlikka qarshi kurash tushunchalarining haqiqiy asl mohiyatini anglatmaydi, asl mazmun-mohiyatiga ko'ra bu tushunchalar shubhasiz zamonaviy dunyoda o'zaro integratsiya, jamiyatning adolatlilik, shaxs huquqlari va erkinliklarining kafolati, shuningdek burch va majburiyatlarining mezonini, farovonlik manbaini bo'lib qolaveradi.

Qadriyatlar tizimi insonning obyektiv va ijtimoiy voqeligidagi kundalik predmetlar, uning atrofidagi obyektlar va hodisalarga turli amaliy munosabatlarini belgilash rolini o'ynaydi. Qadriyatlar ijtimoiy ongda urf-odatlar, marosimlar, an'analar, tartib-tamoyillar ko'rinishida namoyon bo'ladi, aynan shu omillar avlodlar o'rtasida vorisilik, seterotiplar uzatilishini ta'minlaydi. Shaxsning mustahkam qadriyatlari yo'nalishi insonning asosiy hayotiy tamoyillari, uning manfaatlari, harakatlari, niyatlari, shaxslararo munosabatlarni qurish usullarining dunyoqarashi va axloqiy yo'nalishini shakllantirish bo'lib, bu sifatlar shaxsda mustahkam hayotiy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Tahdidlarga bardoshlilikni tarbiyalashda atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarning jamiyatda qabul qilingan usullari, ichki va tashqi omillar ta'sirida o'z harakatlarini o'zgartirish qobiliyati, o'zi va javobgarligi o'zining zimmasida bo'lgan shaxsiy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega harakatlardan iborat ijobiy xulq-atvorni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Intizomni mustahkamlash, jamiyat va madaniyat talablarining shaxsiy manfaatlardan ustunligi pozitsiyasini tarbiyalash, shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli yot mafkuraviy ta'sirlardan himoya qiladigan mafkuraviy immunitetni shakllantiruvchi mafkuraviy tarbiyani kuchaytirish tahdidlarga qarshi tura olish qobiliyatining tarkibiy qismlaridan sanaladi.

Har qanday jamiyatning xavfsizligi, normal taraqqiyotining zarur sharti uning tashqi salbiy ta'sirlarga nisbatan chidamliligi, shuningdek ichki ijtimoiy barqarorligi sanaladi. N. Makiavelli, T. Gobbs, Sh. Monteskye, G. Leybnits kabi mutafakkirlarning ta'limotlarida xavfsizlik faqat davlat tomonidan o'zi tashkil qiladigan maxsus kuch ishlatish qurilmalari yordamida ta'minlanishi va kafolatlanishi mumkin, deb hisoblangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. "Ma'naviyat boshqa sohalaridan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak." 2023-yil 22-dekabr kuni bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutq.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 12-yanvar kuni bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1995-yil 23-fevral.
4. Asqarov Axmadali. "O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi" (o'quv qo'llanma) *Toshkent, 2007-yil "Universitet" nashriyoti*
5. Кара-Мурза С. Г. «Манипуляция сознанием», 2000 г. издательство «Алгоритм». Политический бестселлер Стр.864 ISBN978-5-699-10826-8
6. Otajonov M. Y. Milliy psixologik qiyofa va xarakterni o'rganishning nazariy va metodologik asoslari // *Ilmiy xabarlar N-1.* – T. 19. – S. 19-21.
7. Франкл Виктор. Человек в поисках смысла Сборник: Пер. с англ. и нем (Обш. ред. Л.Я.Леонтьева. – М. Прогресс, 1990. – 368с. Ил. – (Б-ка зарубежной психологии).
8. Erix Fromm, Ozodlikdan qochish (Qodirqul Ro'zmatzoda tarjimai), *Yangi Asr Avlodi nashriyoti, 2021*